

## XORAZM VOHASI QADIMIY AN'ANALARI ASOSIDA MICE TURIZMINING RIVOJLANISHI

**Kadamboyev Behzod Shuxrat o'g'li**  
**Komiljanova E'zoxon Umid qizi**  
Urganch davlat universiteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6985981>

*Annotatsiya.* Har bir hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda turli xil sohalardan foydalaniladi. Ushbu maqolada Xorazm vohasidagi qadimiy an'analarning bugungi kungacha saqlanib qolgalari asosida vohada mice turizmini rivojlantirish haqida ma'lumotlar berilgan.

*Kalit so'zlar:* mice turizmi, ijtimoiy soha, voha, lazgi, yunesko, qadimiy an'analar, madaniy meros.

## РАЗВИТИЕ МИЦЕ ТУРИЗМА НА ОСНОВЕ ДРЕВНИХ ТРАДИЦИЙ ХОРЕЗМСКОГО ОАЗИСА

*Аннотация.* В социально-экономическом развитии каждого региона используются разные отрасли. В данной статье приведены сведения о развитии мышечного туризма в оазисе на основе древних традиций Хорезмского оазиса, дошедших до наших дней.

*Ключевые слова:* мышечный туризм, социальная сфера, оазис, Лазги, ЮНЕСКО, древние традиции, культурное наследие.

## DEVELOPMENT OF MICE TOURISM BASED ON THE ANCIENT TRADITIONS OF THE KHOREZM OASIS

*Abstract.* In the socio-economic development of each region, different industries are used. This article provides information about the development of muscle tourism in the oasis based on the ancient traditions of the Khorezm oasis that have survived to this day.

*Keywords:* mouse tourism, social sphere, oasis, Lazgi, UNESCO, ancient traditions, cultural heritage.

## KIRISH

Mustaqillikdan so'ng Xorazm viloyatida juda keng qamrovli ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa oxirgi 3 yil ichida amalga oshirilgan ishlar buning yaqqol misoli bo'la oladi. Xorazm viloyati sayyohlik salohiyatidan foydalanishni yanada rivojlantirish va samaradorligini oshirish, xorijiy va mahalliy sayyohlarning hududdagi noyob tarixiy-madaniy va me'moriy yodgorliklar bilan keng qamrovda tanishishi uchun yanada qulay sharoit yaratish maqsadida prezident farmoni qabul qilingan.

## TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Xorazm vohasida ko'p yillar davomida saqlanib hozirgi kungacha yetib kelgan juda ko'p sohalar orqali viloyatda mice turizmini rivojlantirish mumkin desak mubolag'a bo'lmaydi. Birgina Xorazm lazgisi nafaqat O'zbekiston balki butun dunyoga mashhur bo'lib YUNESKONing butunjahon madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan.

Shu yilning 2022-yil 25- aprel sanasida YUNESKO, Turizm va madaniy meros vazirligi, Madaniyat vazirligi, Xorazm viloyati hokimligi va boshqa idoralar hamkorligida tashkil etilgan Xiva shahridagi „Lazgi“ Xalqaro raqs festivali bo'lib o'tdi. Tadbirning ochilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining fan, ta'lim, sog'liqni saqlash va sportni rivojlantirish masalalari bo'yicha Davlat maslahatchisi Abdujabbar Abduvaxitov qutlov so'zi bilan chiqdi. U O'zbekiston Prezidentining festival ishtirokchilariga tabrigini o'qib eshittirdi. „Mamlakatimizda ko'p yillar

davomida samarali faoliyat yuritib kelayotgan afsonaviy “Lazgi” ashula va raqs ansambli san’atkorlari har tomonlama qo‘llab-quvvatlanmoqda va ularga zarur shart-sharoit yaratishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

### **TADQIQOT NATIJALARI**

Xususan, o‘tgan yili Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Davlat akademik Katta teatrida nemis rejissyorlari bilan ijodiy hamkorlikda sahnalashtirilgan balet spektakli tufayli lazgi raqsining qadimiy tarixi va jozibasi go‘zal badiiy talqinda ochib berilgan. Bu asar nafaqat mamlakatimiz tomoshabinlari, balki xorijlik san’at ixlosmandlari tomonidan ham katta qiziqish bilan qabul qilinmoqda. Joriy yildan boshlab har ikki yilda bir marta Xiva shahrida “Lazgi” xalqaro raqs festivalining o‘tkazilishi ushbu noyob san’at turini asrab-avaylash va har tomonlama targ‘ib qilish, shu asnda xalqaro madaniy aloqalarni yanada kengaytirish uchun katta imkoniyatlar yaratishi shubhasiz.” bunday tadbirlarning o‘tkazilishidan asosiy maqsad ham turizmni rivojlantirish hisoblanadi.

### **MUHOKAMA**

Xorazm Vohasi o‘zining raqs san’atini bilan ham butun dunyoga mashhur desak adashmaymiz. MICE turizmi bu ishbilarmonlik turizimi hisoblanadi buni natijasida shu hududda mavjud bo‘lgan istalgan bir tarmoqning rivojlanishi hamda keng jamoatchilikga targ‘ib qilinishi natijasida rivojlantirish mumkin bo‘ladi. Ushbu maqolada ham Xorazm vohasidagi mavjud bo‘lgan ashula va raqs san’atini butun dunyoga mashhur brend sifatida targ‘ib qilish orqali turizmni rivojlantirish asosiy maqsadi hisoblanadi.

### **XULOSA**

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki ishbilarmonlik turizimini rivojlantirishda biz uchun oddiydek ko‘ringan narsalar bilan ham rivojlantirishni imkoniyati mavjud. Buning uchun eng yaxshi narsa bu marketing xizmati hisoblanadi. Marketing qilib reklama qilish orqali yurtimizdagi mavjud resurslardan oqilona foydalanish orqali yuqori natijalarga erishsa bo‘ladi. Xorazm Vohasi qadimiy an’analari asosida Mice turizmining rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yetarlicha katta. Bularning eng muhimi yuqori keltirib o‘tganimizdek xalq musiqa san’ati va xalq raqs san’atini butun dunyoga targ‘ib qilish orqali nafaqat viloyatda balki butun Respublikada turizmni rivojlantirish mumkin bo‘ladi desak adashmaymiz. Mavzuning dolzarbligi ham shundan iborat bo‘ladi malakali mutaxassislar bilan ishlash orqali har bir hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish usullari mavjud va uni tashkil etish uchun mavjud bo‘lgan resurslardan foydalanish kerak bo‘ladi.

### **REFERENCES**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2016 yil 2 dekabrda PF-4861-sonli Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2016 y., 49-son, 558-modda. (Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-4861 of December 2, 2016 "On measures to ensure the accelerated development of tourism in the Republic of Uzbekistan." Collection of Legislation of the Republic of Uzbekistan, 2016, No. 49, Article 558)
2. [www.wikipedia.uz](http://www.wikipedia.uz) internet sayti.
3. [www.hozir.org](http://www.hozir.org) internet sayti.
4. [www.yuz.uz](http://www.yuz.uz) internet sayti.